Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319149

materiallar to'plami

SANOAT TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH

Andijon mashinasozlik institute, 4-bosqich talabasi Sherboyev Xojiahmad

Raqamli sanoatlashtirish bugungi kunga kelib davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. 2019 yilda sanoatni raqamlashtirish jahon raqamli iqtisodiyotining 84,3 foizini va jahon yalpi ichki mahsulotining 35 foizini tashkil etdi. Rivojlangan mamlakatlarda sanoatni raqamlashtirish raqamli iqtisodiyotning 86,3 foizini tashkil qildi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ulush 78,6 foizni tashkil etdi. Rivojlangan davlatlar aloqa va dasturiy ta'minot sohasidagi eng kuchli vakillar bo'lib, ular elektron tijorat va ilg'or ishlab chiqarish bilan shug'ullanishni eng birinchilardan bo'lib boshlab bergan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Raqamli industrializatsiya tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi va birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi toifalarga ajratilishi mumkin. Faoliyat turiga ko'ra biz ularni qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga ajratishimiz mumkin. Dunyoda, xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya boshqa ikki sektorga qaraganda tezroq sur'atlarda ro'y bermoqda (quyidagi rasmga qarang).

Bu, asosan, har bir sektorning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya ishlab chiqarishga qaraganda osonroq amalga oshiriladi, chunki xizmat ko'rsatish sohasida doimiy xarajatlar kamroq, tranzaksiya xarajatlari esa yuqori. Qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiyani amalga oshirishda to'siqlar ko'proq bo'ladi, chunki bu sohadagi ishlab chiqarish katta darajada atrof-muhit va tabiiy omillarning ta'siriga bog'liq.

Raqamli transformatsiya – bu besh bosqichdan iborat, uzoq davom etadigan jarayon: pilot, mahalliy kengayish, replikatsiya, operatsiyalarni boshqarish, optimallashtirish va innovatsiya. Raqamli transformatsiyani boshlagan barcha korxonalarning 70 foizdan ortig'i hozirda "mahalliy kengayish" va "replikatsiya" bosqichida, faqat 3,9 foiz korxonalargina "optimallashtirish va innovatsiya" bosqichiga etdi. Yirik korxonalarda to'liq raqamlashtirishga erishish uchun kamida 10 yil kerak bo'ladi.

Raqamli transformatsiyaning barcha dasturlari ayni bir maqsadga ega bo'lishi kerak: yaxshi tajriba, yuqori samaradorlik va biznes o'sishi uchun yangi modellarni taqdim etish orqali korxonalarning asosiy biznesining muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlash.
Foydalanuvchilar tajribasi nuqtayi nazaridan, Misol uchun: Huawei kompaniyasining mijozlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aqlli xizmatlari ajoyib natijalarga erishdi. Bizning tizim har daqiqada 4000 tagacha mijozlarning qo'ng'iroqlarini qayta ishlay oladi va har oy 6 milliondan ortiq foydalanuvchi so'rovlariga javob bera oladi. 92,8 foiz so'rovlar robotlar tomonidan qayta ishlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ko'pincha raqamlashtirish va o'sish ko'rsatkichlari har uchala sektorda ham deyarli bir xil muvozanatda ortib boradi. Ular odatda yangiliklarni birinchilardan bo'lib joriy etish borasida ustunlikka ega bo'ladilar va ularda sanoatni raqamlashtirish uchun mustahkam asos bor. Bu mamlakatlarda tarmoqlarning ko'pchiligi raqamli texnologiyalardan foydalanadi, ularning aloqa tarmoqlariga ulanish foizlari

Published: 10.11.2023

Cite this article: Sherboyev Xojiahmad (2023). Sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319149

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

borgan sari ortib bormoqda va ular aqlli texnologiyalar bilan nisbatan ko‘proq ta'minlangan.


IDC prognozlariga ko‘ra, 2022 yilga borib jahon yalpi ichki mahsulotining 65 foizi raqamlashtiriladi. 2020 yildan 2023 yilgacha raqamli transformatsiyaga kiritiladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar 6,8 trln dollarni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda korxonalarning raqamli transformatsiyaning 1.0 modelidan 2.0 modeliga o‘tishi kuzatilmoqda.

Bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar, mobillik va ijtimoiy tarmoq texnologiyalari 2007 yildan buyon katta qiziqish uyg‘otmoqda va korxonalar bu axborot texnologiyalaridan vaqti-vaqti bilan innovatsiyalar kiritish uchun foydalanmoqdalar. Bu davr 1.0 raqamli transformatsiya davri bo‘ldi.

Endilikda biz raqamli transformatsiya yirik innovatsiyalarni amalga oshirishga yordam berish bilan korxonalar uchun juda katta qiymatliklar yaratadi deb hisoblaymiz. Endi korxonalarga ularning innovatsiyalarini sezilarli darajada rag‘batlantirishi mumkin bo‘lgan sun'iy intellekt, IoT (Internet of things) va blokcheyn kabi yangi texnologiyalar kerak. Bu esa 2.0 raqamli transformatsiya davri bo‘ladi.

IDC kompaniyasi korxonalarda 2.0 raqamli transformatsiyaga erishish uchun to‘qqizta yo‘nalishda to‘g‘ri sharoitlar yaratilishi kerakligini aniqladi. Bu yo‘nalishlar raqamli infratuzilmaning kelajagi, ishonch, intellekt, mijozlar va iste'molchilar, ishlar, operatsiyalar, o‘zaro aloqalar, raqamli innovatsiyalar va sanoat tarmoqlari bilan bog‘liq.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 12 fevraldagi PQ-2126-son

2. Maxkamova M.A. Развитие инноватсионного предпринимателства на селе. Достижение науки и техники АРК. №7 2002, Moskva . S.37-40.

3.Maxkamova M.A. Теория инноватсионного менеджмента. Монография. Т.: «Наука и технология» », 2020.

4. https://stat.uz/uz/2-uncategorised/5221-o-zbekiston-aholisi

5. “Uztelekom”AT manbai 5. Statistika.ru.